

XALQ DEPUTATLARI TOSHLOQ TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

1. O'zbekiston Respublikasining "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida"gi Qonuni hamda xalq deputatlari Farg'ona viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-031-11-0-K/24-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin. 2. Mazkur qarorga muvofiq, Toshloq tumani mahalliy budgetining 2025-yilgi daromadlari 143 mlrd 305 mln 80 ming so'm va xarajatlari esa 143 mlrd 305 mln 80 ming so'm miqdorida tasdiqlanganligi, shuningdek Toshloq tumani mahalliy budgetining shaxsiy g'azna hisobvarag'ida turgan budget mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 822,0 mln so'm etib belgilanganligi inobatga olinsin. 3. Toshloq tumanining 2025-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz ko'rsatkichlari tasdiqlansin, tuman mahalliy budgeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko'rsatkichlari, tuman mahalliy budgetidan 2025-yilda hududiy budget mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari, shuningdek tuman mahalliy budgetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me'yordi tasdiqlansin. 4. Tuman mahalliy budgeti zaxira jamg'armasi hajmi 2025-yil uchun 1 mlrd 802 mln 664 ming so'm miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg'armasi mablag'larini amaldagi budget qonunchiligiga muvofiq, budget tizimi budgetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo'lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilishi ta'minlansin. 5. Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha mutloq miqdorda 1 hektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar, jismoniy shaxslar bo'yicha mutloq miqdorda 1 m² uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan binolar va inshootlarning 1 m² uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsientlar 7-ilovaga, noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat'iy stavkalar hamda suv solig'i uchun qo'llaniladigan koeffitsient va mutloq qiymati tasdiqlansin. 6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rribbosari, tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi, tuman soliq inspeksiyasi bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budgeti uchun belgilangan ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralarini ko'rsin. 7. Hududiy budget mablag'larini taqsimlovchilar budgetdan ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari, oziq ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to'liq rejalahtirilishi va o'z vaqtida to'lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to'g'ri shakllantirilishi va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlasin. 8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin. 9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashining mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rribbosari K.Umarov zimmasiga yuklatilsin.

2024-12-27 19:47:10